

KOKSAARTROZ: ORTOPEDIK MUAMMOLARNING MURAKKAB KO‘RINISHI.PRP TERAPIYANING ROLI

O‘tkirova Marjona

Osiyo Xalqaro Universiteti, Tibbiyot fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada koksartroz kasalligining zamonaviy diagnostikasi, rivojlanish sabablari va davolash usullari tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — kasallikning rivojlanish mexanizmini yoritish, og‘riqni kamaytirish yo‘llari hamda bemor hayot sifatini yaxshilash imkoniyatlarini ko‘rsatib berishdan iborat. Tahlil etilgan ma‘lumotlar asosida koksartrozda erta tashxis va kompleks yondashuv muhim ekani isbotlandi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, fizio- va farmakoterapiya kombinatsiyasi samaradorlikni oshiradi. Muammo murakkab bo‘lsa-da, o‘z vaqtida chora ko‘rish kasallikning og‘ir oqibatlarining oldini olishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: koksartroz, artroz, suyak deformatsiyasi, protezlash, fizioterapiya, og‘riq sindromi, PRP terapiya .

KIRISH

Buyuk tabib Abu Ali ibn Sino inson salomatligini saqlashda harakat va muvozanat muhim rol o‘ynashini aytgan. Koksartroz — son bo‘g‘imining degenerativ-distrofik kasalligi — aynan harakat funksiyasini cheklashi bilan xavfli hisoblanadi. Ushbu maqolada mazkur kasallikning kelib chiqish sabablari, tashxislash metodlari va davolashning dolzarb usullari ko‘rib chiqiladi. Maqola tibbiyot talabalari, ortopedlar, fizioterapevtlar hamda reabilitologlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ularning amaliy faoliyatida foydali bo‘lishi mumkin.

ASOSIY QISM

Koksartroz — son bo‘g‘imi tog‘ay qavatining yemirilishi va suyak to‘qimalarining o‘zgarishiga olib keladigan surunkali kasallikdir. Asosiy sabablari: genetik moyillik, ortiqcha og‘irlik, travmalar, gormonal buzilishlar, surunkali yallig‘lanish kasalliklari.

Klinik belgilari: son bo‘g‘imida og‘riq, harakat cheklanishi, “g‘ijirlagan” tovushlar, yurganda oqsash.

Bosqichlari:

- I bosqich — faqat jismoniy faollikdan so‘ng og‘riq.
- II bosqich — harakatda og‘riq, bo‘g‘imda shish.
- III bosqich — harakatsizlik, mushak atrofiyasi.

Diagnostika: rentgen, MRT, UTT, laborator tahlillar.

Davolash:

1. Konservativ — NSAID, hondroprotektorlar, fizioterapiya, massaj.
2. Protezlash — og‘ir bosqichda.

3. Alternativ — PRP, hujayraviiy terapiya, xalq tabobati.

PRP terapiya organizmning o‘z qonidan ajratilgan trombositlarga boy plazmani muammoli joyga yuborish orqali tiklanishni faollashtiradi.

PRP terapiya quyidagi sohalarda keng qo‘llaniladi:

- Dermatologiyada: yuz terisini yoshartirish, akne izlarini kamaytirish, terini sog‘lomlashtirish.

- Trichologiyada: soch to‘kilishini kamaytirish va yangi soch o‘rishini rag‘batlantirish.

- Ortopediya: bo‘g‘im va paylardagi yallig‘lanishlarni (masalan, tizzadagi artroz) davolash.

- Sport jarohatlari: mushak yoki pay jarohatlarini tiklash.

Koksartrozda PRP terapiya bo‘g‘im ichidagi yallig‘lanishni kamaytirib, og‘riqni yengillashtiradi va bo‘g‘im harakatini yaxshilaydi.

PRP terapiyaning afzalliklari

- Allergiya yoki nojo‘ya ta’sirlar kam bo‘ladi (o‘z qonidan foydalaniladi).

- Jarrohlik amaliyotisiz muolaja.

- Qayta tiklanish muddati qisqa.

- Tabiiy regeneratsiya (tiklanish) jarayonini tezlashtiradi.

Kamchiliklari va ehtiyot choralar

- Har kimga mos kelavermaydi (masalan, qon kasalliklari bo‘lganlarga tavsiya etilmaydi).

- Natija individual bo‘ladi — ba’zida sezilarli o‘zgarish bo‘lmasligi mumkin.

- Bir nechta seans talab qilinadi (odatda 3–5 marta).

Xulosa

Koksartroz — inson hayot sifatini keskin pasaytiruvchi, ammo erta aniqlansa, samarali davolanishi mumkin bo‘lgan kasallikdir. Har bir bemorga individual yondashuv, kompleks davolash va reabilitatsiya ishlari yuqori natijalarga olib keladi. Sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish orqali bu kasallikning oldini olish mumkin. Tibbiyot sohasida bu boradagi ilmiy izlanishlar davom ettirilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Махалова III.Ю. “Ортопедия и травматология”, Тошкент, 2020.
2. WHO Guidelines on Physical Activity and Sedentary Behaviour, 2020.
3. PRP Therapy in Osteoarthritis Treatment: Review Article. International Journal of Orthopaedics, 2021

MAQOLANING BOSH SARLAVHASI QALBIM TO'RIDA-MUHAMMAD YUSUF

Suvonova Gulbar Maqsadali qizi

Toshkent Shahar Chilonzor tumani Gavhar ko'chasi 1-A uy

Annotatsiya: Quyidagi maqola O'zbek adabiyotida xalq yuragidan chuqur joy olgan ijodkor shoir Muhammad Yusuf haqidadir. Uning she'riyatga olib kirgan yangi uslublari va o'zgarishlari to'g'risida bayon etiladi. Ushbu yoritilgan manbaalardan siz Muhammad Yusuf O'zbek xalqining yuragida abadiy yashovchi shoir ekanligiga yana bir bora amin bo'lasiz.

Kalit so'zlar: she'riyatga oshnolik, hayotiy kechinmalar, yurakdan chiqqan satrlar, adabiy meros.

KIRISH

Muhammad Yusuf - O'zbek adabiyotining eng yorqin shoirlar qatoridan bo'lib, u o'zining samimiy, xalqona va ta'sirchan she'rlari bilan minglab kitobxonlar-u she'riyatga oshno qablardan joy olgan. Uning yozgan she'rlarida O'zbek millatining Vatanga bo'lgan milliy g'ururi, yurtga muhabbatini va insoniy tuyg'ularni juda go'zal tarzda ifoda etgan. Shoirning she'rlari xalq tilida yodlanadi, kuyga solinib, qo'shiq va aytimlarga aylanadi.

ASOSIY QISM

Muhammad Yusuf 1954-yil 26-aprel kuni Andijon viloyatining Marhamat tumanida tavallud topgan. Bolalik kezaridanoq adabiyotga oshno bo'lib, o'zining ilk she'rlarini yoza boshlagan. U Toshkent Davlat Universitetining filologiya fakultetida tahsil olib, adabiyot olamiga kirib kelgan. Muhammad Yusuf o'z hayoti davomida turli nashriyotlar va madaniy tashkilotlarda ishlagan. Uning mehnat faoliyatlari quyidagilardan iborat:

- ☐ G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida muharrir
- ☐ "Yosh gvardiya" nashriyotida muharrir
- ☐ O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida faoliyat yuritgan
- ☐ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilish akademiyasida tahsil olgan
- ☐ O'zbekiston xalq shoiri unvonini olgandan so'ng, mamlakat madaniy hayotida faol ishtirok etgan

Muhammad Yusufning birinchi she'ri 1976-yilda "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" haftaligida chop etilgan. Ilk she'riy to'plami "Tanish teraklar" bo'lib 1985-yilda nashr etilgan. Bu to'plam shoirning adabiyotga ilk qadamlarida qog'ozga tushirilgan bo'lib, unda tabiat tasviri, yoshlik damlari hamda iliq tuyg'ular jamlangan. Uning ijod namunalari juda tez fursatda tanildi, chunki u xalqining dardini, tuyg'ularini va orzu-istaklarini o'z misralarida mohir qalam tebratib aks ettirgan. Shoirning ijodi 1980-yillarda keng tanila boshlagan. U

o'zining soddaligi, xalq dardi va milliy ruhni aks ettirgani bilan ajralib turadi. Uning mashhur she'riy to'plamlari quyidagilardir:

- ☐ "Ishonch" (1985)
- ☐ "Uyqudagi qiz"(1987)
- ☐ "Xalqim"(1991)
- ☐ "Ko'zlarimda kecha yarmi"(1994)
- ☐ "Erk"(1996)

Shoir she'rlarida insoniy qadriyatlar, erk va ozodlik g'oyalari, Vatanga bo'lgan muhabbat ustuvor mavzular bo'lgan va o'z xususiyatlari bilan ajralib turgan:

1.Samimiylik va xalqchil ohang - uning she'rlari sodda, tushunarli, biroq qalblarga yaqin.

2.Vatanparvarlik - u milliy g'urur, tarix va Vatan tuyg'ularini jonli tasvirlagan.

3.Haqiqatparvarlik - uning ijodi adolat va rost so'zga asoslangan.

4.Ravonlik va musiqiylik - she'rlari qo'shiq bo'lishi bejiz emas, chunki ular o'ta ravon va qalbning tub tubidan chiqadi.

5.Xalq ruhi - uning she'rlari xalq dardini, quvonch-u tashvishlarini o'zida mujassam etgan.

Muhammad Yusuf insoniy tuyg'ularni yurakdan tasvirlaydi. Jumladan:

"Ulug'imsan, Vatanim" - bu she'r O'zbekiston mustaqilligi ruhini tarannum etib, xalq qalbini chuqur zabt etgan.

"Bobomning duosi" - ota-bobolarimizning duolari, nasihatlari ularning donishmandligi va milliy qadriyatlar haqida yozilgan ta'sirli she'r.

"Ko'zlarimda kecha yarmi" - inson qalbidagi iztirob va kechinmalarni aks ettirgan.

Muhammad Yusuf 2001-yil 29-iyulda Qoraqalpog'istonning Ellikqal'a tumanida 47 yoshida vafot etdi. Shoir ijodi ayni gullab yashnagan paytda, she'riyat muxlislari bilan uchrashish maqsadidagi ijodiy safarida bu hayotdan ko'z yumgan va Andijonda dafn etilgan. Garchi umrining qisqa bo'lishiga qaramay u O'zbek she'riyatida unitilmas iz qoldirdi. Hozirgi kunda ham uning she'rlari yoshlarga ilhom bag'ishlamoqda, darsliklari o'rganilmoqda va kuy-navolarda she'rlari baralla jaranglamoqda. Shoirning adabiyot rivojiga qo'shgan xissasi munosib baholanib, u O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abduganiyevich Karimov farmoniga binoan "Do'stlik" ordeni bilan mukofotlangan hamda " O'zbekiston xalq shoiri " unvoniga sazovor bo'lgan.

XULOSA

Muhammad Yusuf - qalbida chechak ochgan she'riyat egasi, millat iftixori.Uning ijodi xalq qalbida yashashda davom etadi, she'rlari esa ilmgga tashna yangi avlodlarga ilhom bag'ishlashdan charchamaydi. Uning adabiy merosi avloddan-avlodga o'tib, o'zbek millatining ajralmas madaniy boyligiga aylangan. Adib she'rlari biz bilan yashaydi, biz bilan birga nafas oladi va yosh kitobxonlar-u adabiyot oshnolariga vatanparvarlik ruhini bahsh etadi. Shoirning ijodi abadiy yashaydi va barchamiz uchun milliy g'urur manbai bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Arboblar.uz
2. Vikipediya.org
3. ziyouz. com
- 4.kitobxon.uz

OILAVIY MUHITNING BARKAMOL FARZAND TARBIYASIGA, PSIXOLOGIK RIVOJLANISHIGA TA’SIRI

Bahronova Mavluda O‘tkir qizi

*Buxoro innovatsion ta’lim va
tibbiyot universiteti assistenti
bahronovamavluda92@gmail.com
Tel: +998993373971*

Annotatsiya: Oilaviy muhit har bir insonning shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi omillardan biridir. Ayniqsa, farzand tarbiyasi va ularning psixologik rivojlanishida oilaning roli beqiyosdir. Bola dunyoga kelganidan boshlab, u avvalo oilasida muayyan qadriyatlarni, munosabatlarni va axloqiy mezonlarni o‘zlashtira boshlaydi. Shu sababli, sog‘lom, mehrga boy va tarbiyaviy jihatdan boy oilaviy muhit barkamol avlodni shakllantirishda muhim poydevor vazifasini bajaradi. Bu maqolamizda jamiyatning asosiy ustuni bo‘lgan oila barkamol farzand tarbiyalashning maskani ekanligi haqida so‘z yuritamiz.

Kalit so‘zlar: oila, ota-ona, oilaviy muhit, oilaviy qadriyatlar, xulq-atvor, ijtimoiy xavfsizlik, o‘zlikni anglash

Annotation: The family environment is one of the key factors in shaping an individual's personality. In particular, the role of the family in child upbringing and their psychological development is invaluable. From the moment a child is born, they begin to absorb certain values, relationships, and moral standards within the family. Therefore, a healthy, affectionate, and educationally rich family environment serves as a crucial foundation in raising a well-rounded generation. In this article, we will discuss how the family, as the cornerstone of society, plays a central role in nurturing well-developed children.

Keywords: family, parents, family environment, family values, behavior, social security, self-awareness.

Аннотация: Семейная обстановка является одним из решающих факторов в формировании личности каждого человека. Особенно велика роль семьи в воспитании детей и их психологическом развитии. С момента рождения ребёнок начинает усваивать определённые ценности, отношения и моральные нормы внутри своей семьи. Поэтому здоровая, наполненная любовью и образовательным содержанием семейная атмосфера играет важнейшую роль в воспитании гармоничного поколения. В этой статье мы расскажем о том, как семья, являясь основой общества, является местом для воспитания гармонично развивающихся детей.

Ключевые слова: семья, родители, семейная обстановка, семейные ценности, поведение, социальная безопасность, самосознание.

KIRISH

Oilaviy muhit — bu oila a‘zolari o‘rtasidagi munosabatlar, muloqot turlari, tarbiya uslublari, emotsional holatlar, qadriyatlar va ma‘naviy muhit yig‘indisidir. Bu muhit farzandga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita tarzda ta‘sir ko‘rsatadi. Oiladagi mehr-oqibat, o‘zaro hurmat, tinchlik va birdamlik bolada ijobiy xarakter xususiyatlarini shakllantiradi. Jamiyat bardavomligi oshirish uchun avvalo, oilalarning birdamligini, jipsligini saqlab qolishimiz lozim.

ASOSIY QISM

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev ta’kidlaganlaridek “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir. Nikoh O‘zbekiston xalqining an’anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi. Davlat oilaning to‘laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi.” Bu fikr orqali yurtboshimiz shaxslararo munosabat va muloqot ijtimoiy taraqqiyotdagi muhim hodisa ekanligini ta’kidlaydi. Oilaviy munosabatlar tizimi juda murakkab va ancha teran mazmunga ega bo‘lib, o‘z ichiga er-xotin o‘rtasidagi, ota-ona va farzandlar, aka-uka va opa-singillar o‘rtasidagi va shu kabi qator munosabatlar tizimini o‘z ichiga oladi. Oiladagi shaxslararo munosabatlar va muloqot shaxs shakllanishining muhim omili hisoblanadi. Har bir jamiyatda oilaning tarbiya jarayoniga bo‘lgan qarashlar, oilaning iqtisodiy holati, ijtimoiy stratifikatsiyasi, urf-odatlar va qadriyatlar tizimiga asoslanib, turlicha shakllangan.

Masalan, o‘rta asrlar va zamonaviy davrlar o‘rtasida farzand tarbiyasiga bo‘lgan yondashuvda katta farqlar mavjud. O‘rta asrlarda oilada tarbiya ko‘proq axloqiy jihatlarni o‘rgatishga qaratilgan bo‘lsa, zamonaviy jamiyatda bu jarayon ilmiy va psixologik nuqtai nazardan ilgari surilmoqda. Zamon o‘tishi bilan farzand tarbiyasi ko‘proq ilmiy asoslar bilan boyitilgan, ota-onalar o‘z farzandlarini nafaqat axloqiy, balki ilmiy, estetik va ijtimoiy jihatdan ham rivojlantirishga intilishgan. Bu esa o‘z navbatida, farzand tarbiyasining butun jamiyat uchun ahamiyatini yanada oshirgan. Jamiyatning tarixiy rivojlanish bosqichlari, oiladagi tarbiyaning o‘zgarishini ta’minlagan, chunki har bir jamiyatda tarbiya, jamiyatning umumiy holati va qadriyatlari bilan uzviy bog‘liqdir. Farzandning o‘zi ham bu jamiyatning bir a’zosidir, shuning uchun u oila orqali o‘rgangan qadriyatlarni jamiyatda amalga oshirishga tayyor bo‘ladi. Oila, farzandni nafaqat o‘zining yuksalishi uchun, balki jamiyatning kelajagi uchun ham tayyorlashga mas’uldir.

Oila tarbiyasining filosofik asoslari va farzandning ruhiy inqilobi.

Farzand tarbiyasi jarayonini faqatgina amaliy yoki ijtimoiy nuqtai nazardan ko‘rmaslik kerak. Bu jarayonning asosida yotgan falsafiy tamoyillar, farzandning o‘zligini anglashdagi jarayonlar va uning ruhiy rivojlanishiga qo‘yilgan asoslar ham katta ahamiyatga ega. Tarbiyaning falsafiy asoslari insonning o‘ziga, boshqalarga, tabiatga va jamiyatga nisbatan o‘zaro hurmatini va adolatni shakllantirishni nazarda tutadi. Farzandning o‘zlikni anglash jarayoni uning ruhiy inqilobini, ya’ni uning individ sifatida shakllanishini anglatadi. Bu

jarayon davomida farzand o‘zining hissiy, ma’naviy va axloqiy dunyosini shakllantiradi. Farzandning tarbiyasi oilada nafaqat o‘zgacha bilimlarni o‘rganish, balki uning ruhi va aqliy salohiyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Ota-ona, farzandni jamiyatdagi bir shaxs sifatida shakllantirib, unga birinchidan, dunyoqarashni, ikkinchidan, umumbashariy qadriyatlarni o‘rgatadi. Oila, farzandning o‘zini qanday anglashini, o‘ziga bo‘lgan ishonchini, hissiyotlarini boshqarish qobiliyatini rivojlantirishda bevosita ishtirok etadi. Bu jarayonning har bir bosqichi, uning jamiyatdagi kelajagini belgilaydi. Oilada farzandga bo‘lgan munosabat — uning kelajakdagi shaxsiyati, jamiyatdagi o‘rni va muvaffaqiyati uchun asosiy omildir. Quyidagi jihatlar tarbiya jarayonida katta ahamiyat kasb etadi: Bolaga beriladigan mehr va e’tibor, uning o‘ziga bo‘lgan ishonchini shakllantiradi. Farzandning harakatlarini haddan tashqari cheklash yoki butunlay erkin qo‘yib yuborish salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Avtoritar (qat’iy), demokratik (muloqotga asoslangan) va befarq tarbiya uslublari bolada turli xarakter xususiyatlarini shakllantiradi. Oiladagi ijobiy yoki salbiy muhit bolaning emotsional holatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladi. Quyidagilar bunga misol bo‘la oladi: O‘ziga ishonch: O‘z fikrini bimalol bildiradigan, quvnoq, tashabbuskor bolalar ko‘pincha sog‘lom oilaviy muhitda voyaga yetgan bo‘ladi. Emotsional barqarorlik: Oilada doimiy mojarolar bo‘lsa, bu bolada xavotir, qo‘rquv, hatto depressiyaga olib kelishi mumkin. Ijtimoiy ko‘nikmalar: Bolaning atrofdagilar bilan qanday munosabatda bo‘lishi, do‘stlar orttirishi, jamoaviy ishlarda ishtirok etishi oilada o‘rgatilgan qadriyat va ko‘nikmalarga bog‘liq.

XULOSA

Farzand tarbiyasining ijtimoiy xavfsizligi jamiyatning kelajagi porloq ekanini belgilab beradigan omil hisoblanadi. Farzand tarbiyasi oila ichida boshlanib, jamiyatning barcha qatlamlariga ta’sir o‘tkazadigan murakkab va zamonaviy tizim hisoblanadi. Oila ichidagi tarbiya, farzandning ma’naviy va ijtimoiy taraqqiyotini shakllantirib, uning kelajagini jamiyat bilan birgalikda qayta yaratadi. Oila, nafaqat bola uchun tarbiya berish, balki uning psixologik, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlashda ham mas’uliyati katta o‘ringa ega. Bu tizim, jamiyatning asosiy birligini tashkil etadi va har bir farzand jamiyatga ulkan ta’sir o‘tkazadigan bir individ sifatida shakllanadi. Oila tarbiyasining ahamiyati shundaki, u nafaqat farzandning hayotini, balki butun jamiyatni o‘zgartirishga qodir bo‘lgan bir kuchdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Davletshin, A. "Oilaning psixologik muhitini shakllantirish". Toshkent: Sharq, 2016.
2. Bahronova M.O. “ Komil farzand sifatлари, oilada farzandni barkamol qilib tarbiyalashning ijtimoiy-psixologik omillari ”. Vol. 1 No. 5 (2025): STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS

3. Bahronova M.O‘ “ Oilada farzandni barkamol qilib tarbiyalash yo‘llari” SCINE SHINE International scientific journal 15.01.2025. 186-188 bet
4. Usmonxon Alimov “Oilada farzand tarbiyasi” Toshkent- “Movarounnahr ”, 2014. 486 b.
5. A.Fitrat “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” 2-nashr, –Toshkent: “Ma’naviyat”. 2000. – B.112. 55
6. Shoumarov G‘. B “Oila psixologiyasi ”- o‘quv qo‘llanma . Toshkent “ Sharq ”-2010

TIBBIYOTDA XORIJIY TILNING AHAMIYATI

Djumagulova Anora Normaxmatovna

Ijtimoiy iqtisodiy fanlar kafedrası ingliz tili o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda chet tillarini hayotimizdagi o‘rni, chet tillariga bo‘lgan ehtiyoj tufayli uni o‘rganishga yaratilayotgan imkoniyatlarni beqiyosligi, biznes, ta‘lim, sayohat va tibbiyot sohasida chet tillarini bilishni foydali taraflari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: chet tillar, ta‘lim, faoliyat, tibbiyot, xorij tajribalari, hamkorlik, rivojlanish, turizm.

Аннотация: В данной статье речь пойдет о роли иностранного языка в нашей жизни сегодня, о несравненности возможностей, создаваемых для его изучения в связи с потребностью в иностранных языках, о преимуществах знания иностранных языков в сфере бизнеса, образования, путешествий и медицины.

Ключевые слова: иностранные языки, образование, деятельность, медицина, зарубежный опыт, сотрудничество, развитие, туризм.

Annotation: this article will talk about the role of foreign languages in our lives today, the incomparability of the opportunities created to learn it due to the need for foreign languages, the beneficial aspects of knowledge of foreign languages in the field of business, education, travel and medicine.

Keywords: foreign languages, education, activities, medicine, foreign experiences, Cooperation, Development, Tourism.

Bugungi kunda chet tillarni o‘rganishning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Globalizatsiya, texnologik taraqqiyot va xalqaro hamkorlikning kengayishi chet tillarni bilishni shaxsiy va kasbiy rivojlanish uchun zaruriy ko‘nikmaga aylantirdi.

- Chet tillarni bilish xalqaro kompaniyalarda, diplomatik xizmatlarda, tarjima sohasida, turizm va boshqa ko‘plab sohalarda ish topish imkoniyatini oshiradi. Ko‘pgina kompaniyalar xorijiy hamkorlar bilan ishlash uchun chet tillarni biladigan xodimlarni qidiradi.

- Chet ellarda ta‘lim olish yoki malaka oshirish uchun chet tilini bilish zarur. Ko‘pgina nufuzli universitetlar o‘qish uchun chet tilidan imtihon topshirishni talab qiladi.

- Chet tilini o‘rganish boshqa madaniyatlar bilan tanishish, ularning tarixini, adabiyotini va san‘atini tushunish imkonini beradi. Bu shaxsning dunyoqarashini kengaytiradi va tolerantlikni oshiradi.

- Chet tilini bilish sayohat qilishni osonlashtiradi va yanada qiziqarli qiladi. Chet elda mahalliy aholi bilan muloqot qilish, ularning hayoti va madaniyati bilan yaqindan tanishish imkoniyati paydo bo‘ladi.

- Chet tilini bilish dunyoning turli burchaklaridan odamlar bilan muloqot qilish, do‘stlar orttirish va professional aloqalar o‘rnatish imkonini beradi. ta‘lim va biznesdan tashqari boshqa sohalar uchun ham chet tillarini bilish muhim ahamiyat kasb etadi. masalan tibbiyot sohasida. Barchamizga ma‘lumki tibbiyot sohasi O‘zbekistonda yaqin yillardan buyon yanada takomillashib bormoqda. Chet el texnologiyalari bizgacha yetib keldi. Bu texnologiyalar turli xil kasalliklarni o‘z vaqtida aniqlash, oldini olish kabi imkoniyat beradi. Tibbiyot sohasida chet tillarini o‘rni haqida gaplashamiz.

Tibbiyotda xorijiy tilni bilishning ahamiyati beqiyosdir va u turli xil muhim jihatlarni o‘z ichiga oladi:

1. Ilmiy axborot olish:

- Eng so‘nggi tadqiqotlar bilan tanishish: Tibbiyot sohasida eng yangi tadqiqotlar, klinik sinovlar va innovatsion usullar ko‘pincha ingliz, nemis, fransuz va boshqa xorijiy tillarda chop etiladi. Xorijiy tilni bilmaslik tibbiyot xodimlarining sohadagi eng so‘nggi yutuqlardan xabardor bo‘lishga to‘sqinlik qiladi.

- Ilmiy adabiyotlarni o‘qish: Tibbiyotga oid ko‘plab nufuzli jurnallar, darsliklar va qo‘llanmalar xorijiy tillarda nashr etiladi. Ularni o‘qish tibbiyot xodimlarining bilimini kengaytiradi va kasbiy mahoratini oshiradi.

- Xalqaro konferentsiyalarda ishtirok etish: Xorijiy tilni bilish tibbiyot xodimlariga xalqaro konferentsiyalarda, simpoziumlarda va seminarlarda ishtirok etish, o‘z tajribalarini baham ko‘rish va dunyo miqyosidagi mutaxassislar bilan aloqa o‘rnatish imkonini beradi.

2. Bemoralarga xizmat ko‘rsatish:

- Chet ellik bemorlar bilan muloqot: Tibbiyot xodimlari xorijiy tilni bilishlari orqali chet ellik bemorlar bilan bevosita muloqot qila oladilar, ularning shikoyatlarini tushunadilar va to‘g‘ri tashxis qo‘yadilar.

- Madaniy sezgirlik: Xorijiy tilni bilish boshqa madaniyat vakillarining ehtiyojlarini tushunishga yordam beradi, bu esa bemorlarga madaniy jihatdan mos keladigan tibbiy yordam ko‘rsatishga imkon beradi.

- Telemeditsina: Telemeditsina orqali xorijiy bemorlarga masofaviy tibbiy xizmat ko‘rsatishda xorijiy tilni bilish zarurdir.

3. Kasbiy rivojlanish:

- Ishga joylashish imkoniyatlari: Xorijiy tilni biladigan tibbiyot xodimlari uchun ishga joylashish imkoniyatlari ko‘proq bo‘ladi, ayniqsa xalqaro tashkilotlarda, xususi klinikalarda va telemeditsina kompaniyalarida.

- Xalqaro hamkorlik: Xorijiy tilni bilish tibbiyot xodimlariga xalqaro hamkorlik loyihalarida ishtirok etish, chet elda stajirovka o‘tash va o‘z tajribalarini boshqa davlatlarning mutaxassislari bilan baham ko‘rish imkonini beradi.

- Tarjima qilish imkoniyatlari: Tibbiyot xodimlari xorijiy tilni bilishlari orqali tibbiy adabiyotlarni, klinik protokollarni va boshqa muhim materiallarni tarjima qilishda yordam berishlari mumkin.

4. Ta‘lim va o‘qitish: